

INGLIZ VA O‘ZBEK URF-ODAT, MAROSIMIGA OID LEKSIK,
FRAZEOLOGIK VA PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNI TARJIMA TILIDA
QAYTA YARATISH USULLARI.

G‘ulomova Bibi Muxlisa Maxmudjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti XTA 2-bosqich magistranti

e-mail: gulomovamukxlisafeniks@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi urf-odat marosimlariga oid bo‘lgan leksik, frazeologik hamda paremiologik birliklarni tarjima qilish usullari tahlil qilindi. Shu kabi o‘ziga xos madaniy til birliklarini tarjima jarayonida nafaqat tilshunoslik balki madaniyatlararo, kontekstual va izohli yondashuvlar ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada beshta tarjima strategiyalari va bir necha xil usullar ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *tarjima, urf-odat, marosim, leksik birlik, frazeologik birlik, paremiologik birlik, madaniyatlararo kommunikatsiya.*

Kirish- Barchaga ma’lumki har bir xalqning, millatning milliy urf-odat, ananalari mavjud va bu bizga tarixdan ajdodlarimizni xotirlashimizga, ular qay usulda yashagani, nimalarga ishonganini aniqlashimizda yordamchi vositalardir desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki har bir millatning o‘z urf-odat marosimlari, afsona va rivoyatlari, maqol, matal hamda iboralari tizimi mavjud, o‘z o‘rnida bular ma’lum bir millatning madaniyati, tafakkuri va tarixini bevosita ifodalaydi. Xorijiy tillarni o‘rganish davr talabi hisoblangan vaqtda nafaqat ularning tili balki, urf-odat marosimlarini, madaniyatini, ananalarini o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda boisi bu tilshunoslik sohasining turli jabhalarni ochib beradi. Biroq bu elementlar tarjima tiliga ko‘chirilganda, ular o‘z mazmunini to‘liq ifodalashi uchun maxsus yondashuv va metodologiyani talab qilinadi. Shu nuqtayi nazardan, ingliz va o‘zbek tillaridagi madaniyatga xos leksik, frazeologik va paremiologik birliklarni tarjima qilish masalasi dolzarb hisoblanadi¹¹⁹.

Adabiyotlar tahlili- Ingliz va o‘zbek tillari madaniy jihatdan bir-biridan ajralib turuvchi, farqli tillar hisoblanadi. Shu o‘rinda iboralarni, paremiya va milliyk xos so‘zlar (realialarni) ham tarjima qilish jarayonida muammoli holatlar yuzaga keladi. Ingliz tilini o‘rganishda uning frazeologik xususiyatlarini tadqiq qilish muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayonda fe‘l, iboralar tilning alohida qatlami sifatida o‘rganilib chiqishni taqozo qiladi chunki fe‘l va iboralarda ko‘pincha so‘zlar o‘zining asl ma’nosini yo‘qotib ko‘chma

¹¹⁹Komissarov V.N. Teoriya perevoda. Moskva: Vysshaya Shkola (1990).

manoda qo‘llanilgan bo‘ladi. Iboralar ma’lum bir tilda o‘rnatilgan, so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydigan ifoda hisoblanadi. Ular ko‘pincha ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi. Shu sababli, ularni to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilib bo‘lmaydi. Tilshunoslikning iboralarni o‘rganadigan sohasi frazeologiya deb yuritiladi va bu sohada B.Freyzer, N.Xomskiy, A.Kunin, V.Vinogradov, o‘zbek tilshunoslaridan esa Sh.Rahmatullayev, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov, A.Bushuy, M.Sodiqovalar ilmiy ishlar olib borishgan¹²⁰. Yuqorida keltirib o‘tilgan muammoli holat yuzasidan xorijlik mutaxassislar P.Newmark, M. Baker, J. House tarjima nazariyasi bo‘yicha bir qancha metodlarni o‘z ilmiy kitoblarida keltirgan:

Ekvivalent almashtirish usuli – mavjud ekvivalent topib, uni qo‘llash. Newmarkning ta’kidlashicha ekvivalent almashtirish usuli madaniy so‘zlarni tarjima qilishda qo‘llaniladi. Bu holda tarjima qilinayotgan manba tilidagi so‘zga tarjima qilayotgan til taxminiy mos ekvivalent topadi¹²¹.

Deskriptiv tarjima usuli – bu tushuntiruvchi ifodalar orqali mazmunni yetkazish. In Other Words: A Coursebook on Translation kitobi muallifi Mona Baker o‘zining asarida deskriptiv tarjimani to‘g‘ridan-to‘g‘ri atama sifatida emas, tushuntiruvchi ifodalar orqali ma’noni yetkazish haqida bayon etgan. Bu usul madaniy yoki lingvistik jihatdan murakkab matnlarni tarjima qilishda foydali bo‘ladi¹²².

Kontekstual tafsir usuli – iboraning kontekstdagi vazifasiga asoslanib tarjima qilish. Juliane House “kontekstual tafsir usuli”ni muhim yondashuv sifatida ta’kidlab o‘tgan. Uning fikricha, tarjima bu — **re-kontekstualizatsiya** jarayoni ya’ni matnni bir kontekstdan olib, boshqa bir kontekstga joylashtirish. Ushbu yondashuvda tarjimon nafaqat so‘zma-so‘z tarjima qiladi, balki iboralarning yangi kontekstdagi vazifasini ham hisobga oladi¹²³. O‘zbek tilshunosligida esa bu masalalar S. Sirojiddinov, A. Madvaliev, S. Rasulov, M. Rahmatullaeva, Z. Ubaydullaeva kabi olimlar tomonidan yoritilgan.

Material va metodlar. Mazkur maqolada tarjima usullarini amaliy qo‘llash asosida tadqiqot olib borildi. Yuqorida keltirilgan metodlar yordamida o‘zbek va ingliz tillari dan olingan maqollar, iboralar va marosimga oid terminlar asosida tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar- Yuqorida keltirilgan deskriptiv tarjima, kontekstual tarjima va ekvivalent alishtirish usullari o‘rganib chiqilib, shu usulda olib borilgan tadqiqotlar

¹²⁰ Shukurova F.X. Ingliz va O‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning etimologik o‘ziga. Journal of universal science. 2023. – 234-240-b.

¹²¹ Newmark P. A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall-1988. – 83-page.

¹²² Baker, M. (1992). In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge 2011.- 25 January.

¹²³ House, J. (2001). Translation Quality Assessment: A Model Revisited. Gunter Narr Verlag.

o'rganildi. Quyida bir nechta leksik birliklar, frazeologik birliklar va paremiyalar tarjimalariga doir misollar keltirilgan:

1. Leksik birliklarning tarjimasi: Milliy bayramlarimizdan biri bo'lgan Navro'z bayrami va Nikoh to'yi marosimlariga to'xtalamiz. Navro'z- bahor bayrami yoki Yangi yil. "Navro'z" atamasi forscha "nav" (yangi) va "ruz" (kun) ikki so'zdan iborat bo'lib, oriylarning eng muhim bayramining birinchi boshlanish kunidir. Bu so'z ingliz tilida "Persian new year" deb tarjima qilingan¹²⁴.

Nikoh to'yi marosimi turli xalqlarda turlicha nishonlanishi bilan bir qatorda, o'ziga xos atamaları va va lingvokulturologik jihatlari bilan ajralib turadi. D.D.Manukyan, Y.A.Sorokin, d.A.Gilfanova kabi olimlar nikoh to'y marosimiga oid izlanishlar olib borib, ularning madaniy va lingvokulturologik jihatlari tahlil qilishgan¹²⁵.

O'zbek to'y marosimlariga oid frazeologik birliklarni ingliz tilidagi mos tarjimalari;

Kelin salom – "a bride's greeting" yoki "welcoming of the bride" tarzida deskriptiv tarjima qilinadi;

Kelin tushirish – "bringing the bride to groom's home" ya'ni kelinni kuyovning uyiga olib borish kabi tarjima qilinadi;

Nikoh o'qish – "To perform the marriage vows" ingliz tilida nikoh qasamyodi qilmoq kabi ma'nolarda keladi;

Ko'z tegmasin – "Touch wood" yoki "May no evil eye fall upon" tarzida mos ekvivalentlar topiladi¹²⁶.

Ingliz to'y marosimlariga oid frazeologik birliklar esa quyidagicha tarjima qilinadi:

Best Man/eng yaqin do'st - to'y kuni kuyovga yordam beradigan yaqin erkak qarindoshi yoki do'sti;

Flower girl /gul qiz - yo'lak bo'ylab yurib, kelinning oldiga gul barglarini sochadi;

Father of the Bride/kelinning otasi - kelinni ramziy ravishda "gives away"/"beradigan" kishi;

Agar uning otasi vafot etgan bo'lsa yoki boshqa sabablarga ko'ra mavjud bo'lmasa, kelinni boshqa erkak qarindoshi, ko'pincha amakisi yoki ukasi beradi. An'anaga ko'ra, kelinning otasi to'yda nutq so'zlaydi¹²⁷.

¹²⁴ <https://people-travels.com/countries/uzbekistan-additional/navruz-in-uzbekistan>

¹²⁵ Umurova X.X. Ingliz va o'zbek to'y marosimi atamalarixususida. Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes <http://www.conferenceseries.info>

¹²⁶ Newmark P. A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall-1988. – 83-page.

¹²⁷ Uzakova L. O'zbek va Ingliz tillarida to'y bilan bog'liq leksik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi: Ingliz to'y marosimlarini o'tkazish. "Экономика и социум" №3(106)-2-2023

2. Paremiologik birliklarning tarjimasi: “Paremiya (yun. paroimia — hikmatli so‘z, zarbulmasal, hikoya, maqol) – ma’lum bir tildagi avloddan avlodga og‘zaki shaklda ko‘chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan maqol, matal, aforizm, frazeologizm kabi hikmatli iboralar, kontekst sharoitlardan tashqari hamma so‘zlashuvchilar tomonidan tushuniladigan mazmundagi fikr¹²⁸. Paremiologik birliklar millatlararo muloqotda, tarjima jarayonlarida va til o‘qitish metodikalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq maqollarining mazmunini chuqur tushunish ularning mantiqiy asoslarini, tarixiy ildizlarini hamda madaniy xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi¹²⁹.

“To‘yga borsang to‘yib bor, yomonliging qo‘yib bor” maqolining inglizcha mos muqobili “Let bygones be bygones”-O‘tmishdagi ginalarni unutib, xotirjam bo‘l. Ya’ni yomon kayfiyatni tashlab borish ma’nosida maqolning “yomonliging qo‘yib bor” qismiga mos keladi. Bundan tashqari “Leave your troubles at the door” kabi idiomatik keng tarqalgan iboraga mos keladi.

“To‘yga qo‘shiq, azaga-yig‘i” maqolning ing¹³⁰liz tilidagi mos muqobili “There is a time and place for everything” ya’ni har narsaning o‘z vaqti va joyi bor. Ushbu maqol har bir narsani, hodisani, so‘zni o‘z vaqtida, o‘z joyida go‘zal bo‘lishini izohlaydi¹³¹. Newmark P. ning ta’kidlashicha tarjimada madaniy komponentni asrash muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham har bir ibora yoki maqol tarjima qilinayotganda, uni so‘zma-so‘z tarjima qilish emas, balki konteksti, zamini, madaniy anglash qamrovini hisobga olish kerak.¹³²

Xulosa- Yuqoridagi maqolada ingliz va o‘zbek urf odat marosimlariga oid bo‘lgan birliklarni tarjima qilish usullari o‘rganib chiqildi. Shu jumladan, tarjima jarayonidagi samarali usullar – bu deskriptiv yondashuv, ekvivalent topish, izohli tarjima va kontekstual tahlil ekani isbotlandi. Har bir tarjimon har doim madaniy tafovutlar va auditoriya xususiyatlarini hisobga olgan holda tarjima qilishi kerak.

¹²⁸ Berdiyev H., Rasulov R., Uzbek tilining paremiologik lug‘ati, T., 1984

¹²⁹ <https://zenodo.org/records/15015770>

¹³⁰ <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/there-s-a-time-and-a-place-for-everything>

¹³¹ <https://www.merriam-webster.com/dictionary/let%20bygones%20be%20bygones>

¹³² Newmark P. A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall-1988. – 83-page.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baker, M. (1992). In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge 2011.- 25 January.
2. Berdiyev H., Rasulov R., Uzbek tilining paremiologik lug‘ati, T., 1984.
3. House, J. (2001). Translation Quality Assessment: A Model Revisited. Gunter Narr Verlag.
4. Komissarov V.N. Teoriya perevoda. Moskva: Vysshaya Shkola(1990).
5. Newmark P. A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall-1988. – 83-page.
6. Shukurova F.X. Ingliz va O‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning etimologik o‘ziga. Journal of universal science. 2023. – 234-240-b.
7. Umurova X.X. Ingliz va o‘zbek to‘y marosimi atamallari xususida. Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes <http://www.conferenceseries.info>
8. Uzakova L. O‘zbek va Ingliz tillarida to‘y bilan bog‘liq leksik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi: Ingliz to‘y marosimlarini o‘tkazish. "Экономика и социум" №3(106)-2 2023

Foydalanilgan saytlar:

1. <https://people-travels.com/countries/uzbekistan-additional/navruz-in-uzbekistan>
2. <https://zenodo.org/records/15015770>
3. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/there-s-a-time-and-a-place-for-everything>
4. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/let%20bygones%20be%20bygones>